

## SIL KASALLIGI HAQIDA TUSHUNCHA

<sup>1</sup>Xudaybekova Risolat Qaxxorovna

Sirdaryo viloyati ftiziatriya va pulmonologiya markazi katta xamshirasi,

<sup>2</sup>Qurbonaliyeva Sevara Ulug'bek qizi

Toshkent tibbiyot akademiyasi talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7420844>

**Annotatsiya:** Jahon Sog'liqni Saqlash Tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, sil kasalligi hozirda dunyodagi eng keng tarqalgan o'lim sabablarining 10 tasidan biri hisoblanadi. Sil kasalligi yuqqanini erta aniqlashning eng yaxshi usuli — har yili o'pkani flyuorografiya tekshiruvi yoki Mantu teri sinamasini o'tkazish hisoblanadi.

Sil kasalligining erta klinik alomatlarini aniqlash va davolash bo'yicha Sirdare viloyatida ftiziatriya va pulmonologiya markazi 1989 yil 30 dekabr ochilgan bo'lib, bugungi kungacha sirdaryo viloyati ftiziatriya va pulmonologiya ilmiy amaliy tibbiy markazida(RIFvaPIATM) bemorlarni davolash bilan birgalikda ftiziajarrohligi bo'yicha ilmiy amaliy ishlar olib borilmoqda.Xususan ushbu markazda 10.01.2018 yildan jarroxlik amaliyotini boshlagan va shu kungacha 121 ta jarroxlik amaliyotini muolajasini o'tkazgan.

**Tayanch so'zlar:** Sil kasalligi, Kox bakteriyasi, OIV infeksiyasi, immunitet, limfa, BTsJ vaktsinasi

### KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION)

Inson umurtqa pog'onasida sil kasalligi belgilari, bundan 5 ming yil oldin yashab o'tgan odamlarda aniqlangan. Xuddi shunday o'zgarishlar eramizdan 2-3 ming yil avval yashab o'tgan Misr fir'avnlari tanasida ham aniqlangan. Gippokrat, Galen, Abu Ali Ibn Sino tomonidan yo'tal, balg'am ajralishi, qon tuflash, ozish kabi silning asosiy simptomlari ko'rsatib o'tilgan.Sil tayoqchasi aniqlanmasdan ancha avval, bu kasallikning yuqumli tabiatga ega ekanligi ma'lum bo'lgan. Bundan ming yil avval cil kasalligi yuqumli ekanligi, u kambag'allar orasida, og'ir sharoitlarda yashovchilar orasida keng tarqalishi haqida dastlabki mukammal ma'lumotlarni buyuk bobomiz Abu Ali Ibn Sino yoritganlar. U zot ming yil burun maxsus asbob yasab, ekssudativ plevritni punktsiya qilganlar va suyuqlik chiqarib olganlar. Shu kasallikni sababini sil deb ko'rsatganlar. U kishining «Tib qonunlari» kitoblari besh yuz yildan ortiq Evropalik olimlar uchun beqiyos ilm manbai bo'lib keldi.Sil qo'zg'atuvchisi. Sil qo'zg'atuvchisini 1882 yilda nemis bakteriologi R.Kox kashf etgan. Hozirgi vaqtda sil qo'zg'atuvchisi «sil mikobakteriyalari» deb ataladi.JSST tavsiyasiga binoan, 1982 yildan boshlab, 24 mart-Xalqaro silga qarshi kurash kuni deb e'lon qilingan.

Xususan Respublika ixtisoslashtirilgan ftiziatriya va pulmonologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi direktori Nargiza Parpieva sil kasalligiga oid ko'rsatkichlar haqida o'z fikrlarini bildirarkan, sil kasalligiga oid ko'rsatkichlarimiz yaxshilanib borayotgani to'g'risida quyidagi ma'lumotlar bergan

Xaqiqatdan ham, oxirgi 10 yil davomida sil kasalligining 100 000 aholiga nisbatan kasallanish ko'rsatkichi bir me'yorda kamayib bormoqda. Bu holat – prezident qarorlari bilan tasdiqlangan dasturlarning to'laqonli bajarilishi, JSST va boshqa xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda sil kasalligining oldini olish, tashxislash va davolash borasidagi zamonaviy, zamon talabiga javob beradigan yangi usullarni ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish natijasidir.

- sil kasalligining engil turlari, sil mikobakteriyasini ajratmaydigan turi bilan kasallangan bemorlar ambulator davolashga o'tkazilishi natijasida ftiziatriya tizimidagi tashkillashtirilgan o'rinlar bosqichma-bosqich qisqartirilmoqda. Shuningdek, aholi orasida keng tarqalgan o'pkaning nospetsifik turlari bilan kasallangan bemorlarga ixtisoslashtirilgan tibbiy yordam takomillashtirish maqsadida hududlardagi ftiziatriya yo'nalishi bo'yicha bosh muassasalarimizda sil bo'limlari o'rniga tashxislash va pulmonologiya bo'limlari tashkil etilmoqda.

#### **ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОДОЛОГИЯ / LITERATURE REVIEW)**

Nemis bakteriologi R.Kox sil kasalligi haqida yozarkan ijtimoiy omillarga muhim o'rin bergan. R.Kox takidlashicha «Sil kasalligiga moyillik, — insonda yomon sharoitda yashovchi, quvvatsizlangan tanada yuqori bo'ladi. Er yuzida qorong'i, zax, yashash sharoitlari yomon, kulbasiga quyosh nuri tushmaydigan xonadonlar saqlanib qolsa, sil kasalligi xech qachon yo'qolmaydi». Berlin shahrida Fiziologlar jamiyatida R.Kox 1882 y. 24 mart kuni «Sil etiologiyasi» mavzusida ma'ruza qildi va sil tayoqchasini hammaga ko'rsatdi va unga 1905 yilda Nobel mukofoti berildi.

#### **NATIJALAR (РЕЗУЛЬТАТЫ / RESULTS)**

Shifokorlar sil kasalligini ikki shaklga ajratadilar.bular yashirin va faol shakl davrlardir.

##### **1. Yashirin (latent) shakl**

Kox tayoqchasini yuqtirgan odamlarning hammasi ham kasal bo'lib qolmaydi. Ko'pgina odamlarning immun tizimi sil kasalligi bakteriyalarining faolligini bostirish uchun etarlicha kuchli. Ya'ni, organizmda Kox bakteriyasi bo'lsa xam sil kasalligi rivojlanmaydi. Dunyo bo'ylab taxminan ikki milliard odamda sil kasalligi latent kechadi. VOZ ma'lumotlariga ko'ra yashirin shakl faol shaklga o'tish ehtimoli 5-15% ni tashkil qiladi va bu immunitet keskin tushib ketganda kuzatiladi, masalan homiladorlik, jigar va buyrak kasalliklari, qandli diabet,

to'yib ovqatlanmaslik (qattiq parxez tutish), chekish, saraton yoki OIV infeksiyasi paytida.

## 2. Faol (aktiv) shakl

Bunda immun tizimi bakteriyalar sonining ko'payishini nazora qila olmaydi. Kasallikning ushbu shakliga ega bo'lgan odam nafaqat o'z sog'lig'iga xavf soladi, balki boshqalarni ham faol yuqtiradi.

Silning yashirin shakli simptomsiz kechib, sog'liqqa putur etkazmaydi. Faol shaklida esa bir qator belgilar kuzatilib ular asa-sekin rivojlanadi. Avvalo kasal bo'lmaslik tozalik va gigiena qoidalariga amal qilinish kerak va shamollash va gripp kasalliklariga engil qaramaslik kerak buning asoratlari salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin.

Sil kasalligining 7 ta dastlabki belgilari mavjud bo'lib, quyida ular bilan tanishamiz va qisqacha taxlil qilamiz.

### 1. 3 hafta yoki undan ko'proq davom etadigan yo'tal.

Agar siz sababsiz va tinimsiz yo'talishni boshlagan bo'lsangiz, albatta terapevt bilan bog'laning yoki flyuorografiya qiling. Bu o'pka bilan bog'liq muammolarining eng aniq va dastlabki belgisidir. Yodda tuting, yo'talning boshqa sabablari ham bo'lishi mumkin — masalan, mavsumiy allergiya yoki changga allergiya, surunkali bronxit, xonada namligini pasayishi.

### 2. Ko'krakdagi diskomfort (noxushlik).

Og'riq bo'lishi shart emas. Yo'talayotganda yoki nafas olayotganda ko'krak qafasidagi yoqimsiz xissiyotlar kuzatilsa terapevtga uchrang.

### 3. Subfebril harorat.

Ko'rinishidan tana xarorati yo'qdek bo'lsa xam termometr doim 37-37,5 °S ni ko'rsatadi. Uzoq davom etuvchi yo'tal kabi subfebril isitma xam sil kasalligi xaqida signal beradi.

### 4. Sababsiz tana vaznini tushishi.

Inson turmush tarzini o'zgartirmasa xam, qat'iy parxezga rioya kilmasa xam, sport zalida ortiqcha shug'ullanmasa xam ozib ketishi nafaqat sil kasalligi balki boshqa bir qator xavfli kasalliklar alomati xisoblanadi. Masalan, o'sma kasalligi, ichki yallig'lanish, ichak qurtlari va parazitlar bo'lishi mumkin.

### 5. Junjikish va ko'p terlash.

Gox sovuq qotish, gox qizib ketish va terlash klimaks davridagi ayollar xos shikoyat. Ammo Sizga klimaxgacha uzoq bo'lsa, yoki bu xolat ortda qolgan bo'lsa, yoki siz erkak kishi bo'lsangiz — qizib ketishni e'tiborsiz qoldirmang. Ayniqsa tunda uyquda terlab uyib ketsangiz — sil kasalligiga gumon qilish kerak.

### 6. Ishtahani pasayishi

Siz kasallik haqida hali taxmin qilmasligingiz mumkin, ammo organizm allaqachon u bilan kurashayotgan bo'lishi va buning uchun katta energiya sarf qilayotgan bo'lishi mumkin. Buning uchun bir qator sistemalar jalb qilinadi. Birinchi navbatda ovqat hazm qilish tizimi zo'riqadi. Ovqat hazm qilishga qimmatli energiyani sarflamaslik uchun organizm ozroq ovqatlanishni boshlaydi, ishtaha yo'qoladi. Bu terapevtga murojaat qilishingiz uchun yaxshi sabab bo'ladi.

7. Bo'shashish va tez toliqish.

Bu shikoyat bir qator kasalliklarning keng tarqalgan alomati xisoblanadi. Masalan, yurak-qon tomir kasalliklari, rivojlanayotgan saraton va metabolizmning jiddiy buzilishlari, sust depressiya va sil kasalligi shu tarzda namoyon bo'ladi. Agar dangasalik sizning ikkinchi ismingizga aylangan bo'lsa, zudlik bilan terapevtgizga uchrang.

### **XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION)**

Xulosa kilib aytganda sil kasalligiga qarshi kurashish va oldini olish bo'yicha O'zbekistonda ftiziatriya fan sifatida 1922 yildan boshlab, O'rta Osiyo davlat dorilfununida tibbiyot kulliyoti ochilganidan so'ng rivojlana boshladi.

Sil kasalligi surunkali infeksiyon kasallik bo'lib, granulyomatoz reaksiyaning boshlanishi va organizm turli sistemalarining zararlanishi, turli-tuman klinik alomatlari va patologanatomik ko'rinishlar bilan kechadi. Sil hammadan ko'p tarqalgan infeksiyon kasallik. Bunga, bir tomondan, kasallik ko'zg'atuvchisining tashqi muhitda juda ko'p uchrashi sabab bo'lsa, ikkinchi tomondan, odamda sil bilan kasallanishga ancha moyillik borligi sababdir. Sil kasalligi yuqqanini erta aniqlashning eng yaxshi usuli — har yili o'pkani flyuorografiya tekshiruvini yoki Mantu testi sinamasini o'tkazish hisoblanadi. Shuningdek bu kasallikni erta klinik alomatlarini aniqlash va davolash bo'yicha Sirdaryo viloyatida ftiziatriya va pulmonologiya markazi 1989 yil 30 dekabr ochilgan bo'lib, bugungi kungacha sirdaryo viloyati ftiziatriya va pulmonologiya ilmiy amaliy tibbiy markazi o'z faoliyatini olib bormoqda. Sil kasalligi yuqqanini erta aniqlashning eng yaxshi usuli yana takrorlaymiz, darhol terapevt ko'rigiga yoziling. Mutaxassis sizning shikoyatlaringizni tinglaydi, kasallik tarixini ko'rib chiqadi va dastlabki tashxisni tasdiqlaydigan yoki rad etadigan testlarni o'tkazishni taklif qiladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar.**

1. A.M.Ubaydullaev O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Akademigi, professor «SIL KASALLIGI nomli Milliy qo'llanma»
2. Jurnal.Nargiza Parpieva. "Sil kasalligiga oid ko'rsatkichlar" 03.10.2021

3. R.Kox «Sil etiologiyasi» 1882 y. 24 mart

4. Jurnal.Sh.To'raqulov, silga qarshi kurash dispanseri terapiya b.m. "Sil kasalligi: tarixi, yuqish yo'llari, davolash".